

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: 81

ORCID: 0000-0002-9085-6843

O'ZBEK TILIDA HAQORAT KONSEPTINING PAREMIOLOGIK VOSITALAR ORQALI VOQELANISHI

Z. M. Tuxtasinova

Qo'qon DPI, f. f. f. d. (PhD),
katta o'qituvchi

Tel: +998911548453

E-mail: zilola.t@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek kommunikativ nutqida haqorat konseptining paremiologik vositalar orqali ifodalanishi muhokama qilinadi. Unda nutqiy xatti-harakatlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy me'yorlarga, xususan, haqoratdan saqlanish nuqtai nazaridan mos kelishi ta'kidlanadi. Nutqda lingvistik vositalardan foydalanish ba'zan salbiy his-tuyg'ularni yetkazishi mumkin, ular paremiologiya obyekti - maqol va matallarni o'rganish orqali o'rganiladi. Haqorat kishilar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarda katta ahamiyatga ega va kishi qalbida xissiy jarohat qoldirishi bilan ahamiyatlidir.

Tayanch so'z va iboralar: nutq harakati, ijtimoiy me'yor, maqol, hikmatli ibora, kognitiv belgi, paremiologik birlik.

THE REALIZATION OF THE CONCEPT OF INSULT IN THE UZBEK LANGUAGE THROUGH PAREMIOLOGICAL MEANS

Annotation. The article discusses the expression of the concept of insult in the Uzbek communicative speech through paremiological units. It states that speech acts should conform to social norms and moral norms, in particular, in terms of avoiding insults. The use of linguistic tools in speech can sometimes convey negative feelings, which are studied by studying the object of paremiology - proverbs and quotations. Insults are important in social interactions between people and are important because they leave an emotional wound in a person's heart.

Key words and phrases: speech act, social norm, proverb, quotations, cognitive sign, paremiological unit.

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА ОСКОРБЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ

Аннотация. В статье рассматривается выражение понятия оскорбления в узбекской коммуникативной речи через паремиологические единицы. В нем говорится, что речевые действия должны соответствовать социальным нормам и моральным нормам, в частности, в части избежания оскорблений.

Использование языковых средств в речи иногда может передавать негативные чувства, которые изучаются путем изучения объекта паремиологии - пословиц и афоризмов. Оскорбления важны в социальном взаимодействии между людьми и важны, поскольку оставляют эмоциональную рану в сердце человека.

Ключевые слова и словосочетания: речевой акт, социальная норма, пословица, афоризмы, когнитивный признак, паремиологическая единица.

KIRISH. Konsept mental birlik sifatida tilning turli qatlamiga tegishli bo‘lgan lisoniy birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Xalqning milliy ongi, uning umumiy qabul qilingan ko‘p qirrali dunyoqarashi u tomonidan yaratilgan maqol, matal kabi og‘zaki ijod namunalarida o‘z aksini topadi. Zero, bunday namunalar orqali xalqning yillar davomida to‘plagan tajribasi avloddan-avlodga yetib keladi. Tilshunoslikda ma‘lum bir lisoniy hodisani o‘rganishda ham bu kabi birliklar tadqiqini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Shu sababli ham “haqorat” konseptini tadqiq qilishda uning kognitiv belgilarini, jamiyatda kishilar orasidagi muloqotda qanday o‘ringa ega ekanligini aniqlashda hikmatli iboralarning o‘rni katta.

Paremiologiya so‘zi grekcha **paroimia** (hikmat) va **logos** (fan) so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma‘lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar sistemasini o‘rganadigan fandır [6]. Ushbu fan hikmatlar, ya‘ni paremalarning yasalishi, rivojlanishi va qo‘llanishini til turli sathlarida va yo‘nalishlarida o‘rganib boradi. Hikmatli iboralar kishilarning turmush davomida orttirilgan bilimlarini qisqa va mazmundor yo‘sinda aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘rganilayotgan “haqorat” konsepti tuzilmasidagi eng ahamiyatli va xalqning tarixi bilan bog‘liq qismi ham paremalar orqali aniqlanadi. Zero, “paremiologik zona – konsept strukturasidagi maxsus zona bo‘lib, u xalqning konsept haqidagi tarixiy tasavvurlari va konseptning turli tomonlarini anglashini aks ettiradi”[9].

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, xalqimizdan etishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, O‘rta Osiyoda yoshlarga ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini singdirishda o‘z hissasini qo‘shgan Abdulla Avloniy, Gulxaniy kabi allomalar ham o‘z asarlarida haqoratga bo‘lgan munosabatlarini bayon etishgan. Ular tomonidan qoldirilgan fikrlar tadqiqot ishimizning ma‘no qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Konseptning ikkita jihatini aniqlash muhimdir. Uning birinchi jhati semalar to‘plamida namoyon bo‘ladigan, semantik belgilardan tashkil topgan mazmun hisoblanadi. Ikkinchi jhati esa konseptning ifodalanishi bo‘lib, mazkur konseptni tilda yuzaga chiqishini ta‘minlaydigan

barcha lisoniy vositalardan tashkil topadi. Buni yana konseptning verbalizatsiya vositalari deb ham ataladi [8].

Ayrim konseptlarda ikkinchi jihat, ya’ni lisoniy verbalizatsiya bo‘lmasligi mumkin. “Haqorat” konseptining keltirilgan har ikki jihati ham mavjud. Haqorat va unga ekvivalent so‘zlar ishtirok etgan maqol, matal va aforizmlarning semantik tahlili bu konseptning xalqning mental olamidagi tasvirini, uning kognitiv belgilarini ochib beradi. Nutqda haqorat maqsadida qo‘llanadigan paremalarning tadqiqi esa uning ikkinchi jihatidir.

O‘zbek xalqining milliy dunyoqarashida “haqorat” konseptining o‘rnini, uning kognitiv belgilarini xalq uchun asrlar davomida tarbiya, pand-nasihat o‘chog‘i bo‘lib kelgan, buyuk mutafakkirlarning asarlarichalik aniqlab bera oladigan manba bo‘lmas kerak. Haqorat kuchli hissiy kechinmalarni o‘zida namoyon qiladi. Lekin shu bilan birgalikda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni buzishi, ruhiy tushkunlikka yetaklashi bilan har qanday davrda qoralangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbek xalqining tasavvuriga ko‘ra haqorat kishiga ozor beradi, uning qalbini yaralaydi. Buyuk ma’rifatparvar yozuvchi Abdulla Avloniy aytganidek: “Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o‘rnashub, shunday yomon jarohatlarni ochurki, fursatni g‘animat topub o‘ch va intiqom olmaguncha tuzalmaydur”[3]. Bu hikmatli so‘zlar shuni anglatadiki, kasallikning davosi dori, malham bo‘lganidek, haqorat jarohatlagan dilning davosi faqatgina o‘sha jarohatlagan kishidan o‘ch olishdir. Shundagina undan qolgan iz yo‘qolishi mumkin. O‘ch olish esa yomon oqibatlarga olib keluvchi yana bir boshqa jinoyatga yo‘l ochadi. Bu jumlaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “haqorat” konseptining kognitiv belgisi “haqoratlovchidan intiqom olmaguncha tuzalmaydigan dil jarohati” ekan.

Abu Rayhon Beruniyning nasl-nasabi, kelib chiqishini bilmagan bir shoir ko‘pchilik orasida uning nasabini ko‘klarga ko‘tarib maqtaydi. Beruniy she’r orqali nasl-nasabini o‘zi ham bilmasligini, otasi odobsiz, onasi oddiy o‘tinkash kampir bo‘lganligini bilishini ifodalaydi. Shoir buni bilmagan holda Beruniyni maqtash o‘rniga uni haqorat qilib qo‘yganini bilmaydi.

Ey, meni madh etgan beodob shoir!

Bu madhing ayladi meni ko‘p tahqir.

Maqtovga so‘z izlab she’rlar yozibsan,

Nasabim ko‘tarib ko‘kka benazir.

Ont ichib aytaman, bilmam nasabim:

Hatto ota-bobom, ajdodim kimdir.

Otam Abu Lahabdek odobsiz bir chol,

Onam-chi, huv, o‘sha o‘tinkash kampir [1].

Ushbu hikmatli nazmiy asardan parcha haqoratning mazmuni o‘ta kengligini, hattoki maqtov ham haqorat bo‘lishi mumkinligini anglatmoqda. Ushbu she’riy parcha orqali Sharq falsafasiga ko‘ra, “o‘rinsiz maqtov – haqoratdir” kognitiv tushunchasi namoyon bo‘ladi. Ya’ni, kishini o‘ta maqtash kerak emasligi, maqtaganda ham kishining o‘zi bilgan, ishonchi komil bo‘lgan tomonini maqtash, agar bilmasa maqtamagani yaxshi ekanligi, aks holda maqtov yo‘naltirilgan inson tahqirlagan bo‘lib qolishi uqtiriladi.

O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, tasavvuf ilmining asoschilaridan biri bo‘lgan Ahmad Yassaviyning ta’limotlarida ham kishini haqorat qilishning oqibatlarini haqida aytib o‘tiladi.

Ey darvish, har kim g‘aniylarni ikrom qilsa dunyosi uchun abadul-abad Xudoyi ta’oloning la’natiga giriftor bo‘lur va agar faqirni haqir ko‘rsa va ihonat qilsa, xudoyi ta’olo chandon azobg‘a giriftor qilg‘ay. Bul fe’l mo‘minlarda bo‘lmas, magar munofiqlarda bo‘lg‘ay [4].

Ushbu hikmatli iboraning ikkinchi qismida aytilishicha, agar kishi faqir (kambag‘al) insonni xorlasa va uni haqorat qilsa Alloh uni qattiq azobga duchor qiladi. Va bunday fe’l munofiqlarga xos bo‘lib, mo‘min kishi bunday qilmasligi aytiladi. Kambag‘al kishi o‘zi yordamga muhtoj hisoblanadi, uni shundayligi uchun ham tahqirlash qoralanadi. Ushbu hikmatli misra asosida “qashshoqni haqoratlagan mo‘min emas” degan tushuncha hosil bo‘ladi.

Ahmad Yugnakiy o‘zining “Hibatul haqoyiq” asarida ham haqorat haqida fikr yuritgan. Ushbu asarning “Tilni tiyish va axloq-odob haqida” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida shunday keltiriladi:

Tilingni nojo‘ya so‘zdan mahkam tut,
Tishlaring sinmasin, so‘kishni unut [5].

Kishining tili uning eng xavfli dushmani bo‘lishi mumkin, tili orqali kelgan balo uning tanasini ham nogiron qiladi. Bu misra pand-nasihat ko‘rinishida bo‘lib, unda “so‘kish, haqoratlash javobsiz qolmaydi, aytgan haqorat so‘zing uchun jag‘ingga musht tushirsa, tishing singani qoladi” degan ma’no uqtiriladi. Xuddi shu mazmundagi yana bir maqolni ham misol qilib keltirish mumkin:

So‘kishdan urush chiqar, o‘rtada to‘n yirtilar [6].

Kishi g‘azab ifodasi sifatida boshqa bir insonni so‘kadi. So‘kish qaratilgan inson o‘zini sha’ni toptalgandek sezadi. O‘z sha’nini himoya qilish uchun haqoratga gap bilan javob qaytaradi yoki jismoniy kuch ishlatib, so‘kkan odamga tashlanadi. Natijada to‘n yirtiladi. Maqoldagi to‘n, o‘zbek milliy kiyimi, umuman, ustki kiyim ma’nosida kelmoqda.

Bu bilan so‘kish orqali dillarni vayron qilishdan, kamsitishdan qaytariladi. Hikmatda haqoratning yana bir kognitiv ma’nosi “haqorat mushtlashuvga aylanadi” ochib beriladi.

Alisher Navoiy tilning yomonligidan keladigan jarohat haqida shunday deydi:

Ko‘ngilda til sinoni jarohati butmas,
Anga hech nimai marham yerin tutmas [2].

Shoir ushbu hikmatli bayt bilan tildan bo‘lgan jarohat tuzalmasligini, unga hech narsa malham bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Bu yerda yomon til misoli nayzaga o‘xshatilmoqda. Agar u biror bir ko‘ngilga otilsa, uning jarohati tuzalmaydi, vaqt o‘tsa ham uning yarasi ketmaydi, xotiradan o‘chmaydi. O‘zbek xalq maqollari orasida ham shu mazmundagisini uchratish mumkin:

Til yarasi bitmas, tig‘ yarasi bitar [6].

Tig‘, ya‘ni o‘tkir uchli asbob bilan inson tanasiga berilgan jarohat o‘rni vaqt o‘tib bitib ketadi, tuzaladi. Lekin, yomon til bilan hosil bo‘lgan yara bitmaydi.

Ushbu maqol va hikmatli misradan kelib chiqadigan kognitiv belgi – “haqoratdan kelgan jarohat bitmaydi”.

Keyingi baytda ham yomon tildan keladigan ozor haqida so‘z boradi:

Chun sinsa ko‘ngil zaxm zabon og‘rig‘idin,

Kam emas aning og‘rig‘i jon og‘rig‘idin [2].

Yomon tildan ko‘ngil sinsa, uning og‘rig‘i jon og‘rig‘idan kam emas, deyiladi. Yomon so‘zlar bilan kishi haqorat qilish, uni kamsitish uning qalbiga ziyon keltiradi, uni og‘ritadi. Kognitiv belgi – “haqorat og‘riq beradi”.

Taniqli yozuvchi Tohir Malikning “Odamiylik mulki” risolasida odob-axloq, ta‘lim berishda so‘kish va haqorat so‘zlarni ishlatmaslik haqidagi quyidagi hikmatli jumla aniqlandi:

O‘rgatmoq uchun so‘kish, yordam bermoq uchun haqorat shart emas [11].

Kishiga ta‘lim berishda uni so‘kish, og‘ir so‘zlar bilan haqoratlash shart emas, balki yaxshi gap bilan uning ko‘ngliga yo‘l topish, u bilan to‘g‘ri muomala qilish talab etiladi. Qisqasi, ta‘lim va tarbiya berishda, kishiga yordam berishda haqoratdan foydalanmaslik kerak. Bu hikmatli ibora har qanday zamon uchun dolzarb mavzudir, chunki bugungi kunda ham ommaviy axborot vositalari orqali maktablarda ayrim o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni haqoratlangan holatlari haqidagi xabarlar uchrab turadi. Ushbu paremaning mazmunini quyidagi maqol yanada aniqlashtirib keladi:

Bolani ursang eti qotadi – so‘ksang beti [6].

Maqolda bolani so‘kmaslikning sababi keltirilgan. Unga ko‘ra, bolani urib katta qilinsa, eti qotadi. Yana qayta-qayta kaltak egan bola uchun jazolanish odatiy holga aylanib, keyinchalik bu usul ham ta‘sir qilmay qo‘yadi. Bola so‘kib katta qilinsa beti qotadi, ya‘ni boshqa so‘zlar uni ta‘sirlantirmaydi. Unga tanbeh berilgani bilan kor qilmaydigan bo‘lib qoladi. Xo‘sh, bolani urish-so‘kish qoralansa, u holda uni qanday tarbiyalash kerak? Keyingi hikmatli jumlada ushbu fikrga javob bor:

So‘kib uchdan biriga, sevish va siylash bilan hammasiga erishiladi [11].

Demak, o‘zbek milliy qarashlariga muvofiq bolani tarbiyalashda uni so‘kmaslik, haqoratlamaslik, balki uning tarbiyasiga mehr-muhabbat bilan yondashish kerak. Har qanday faoliyat turida kishi insonlar bilan muomala qilar ekan, haqorat so‘zlarni ishlatish uning maqsadini amalga oshirishda to‘sqinlik qilishi aytilmoqda. Agar inson atrofdagi insonlarga ham muhabbatli bo‘lsa, uning ko‘zlagan maqsadiga erishishi oson bo‘ladi. Kognitiv belgi – “haqorat bilan maqsadga erishilmaydi”.

Bunday ibratli fikrlar maqol va matallarda ham aks etgan.

O‘rinsiz haqorat soqovni burro qilar [7].

Bu maqolda o‘rinsiz haqoratning oqibati tasvirlangan. Haqorat so‘zni aytilsa, lekin odam unga loyiq bo‘lmasa, ya‘ni aytilgan so‘z u odamni tasvirlamasa, haqorat adresat uchun yanada qattiq botadi. Unga tuhmat kabi tuyuladi. Shu tufayli ham uning g‘azabi oshib, bu holatda hatto

kamgap kishining ham tili o‘tkir va keskir bo‘ladi. Kognitiv belgi – o‘rinsiz haqorat soqovni burro qiladi.

O‘zbek madaniyatida qo‘shnilarning o‘rni katta. Qo‘shnilar bilan har doim yaxshi munosabatda bo‘lish talab qilinadi. “Yaxshi uy olmasang ham yaxshi qo‘shni ol”, “Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi” mazmunidagi ibratomuz maqollar ham aynan qo‘shnilarning hayotdagi o‘rni haqidadir.

Ayrilmas qo‘shningga uyatli gap (so‘z) gapirma [6].

Bu maqol qo‘shnilar bilan chiroyli muomala qilish, ularga yomon so‘zlarni aytmalik, ularni behuda haqoratlamaslikka chaqiradi. Chunki, o‘zbek oilalarining yaxshi va yomon kunlarida qo‘shnilar bir-birlariga yordam berishadi, qo‘llab-quvvatlashadi. Kognitiv belgi – “qo‘shningni haqoratlama”.

Maqollarda xalqning yillar davomida to‘plangan tajribasi mujassam. Yana bir ibratli maqol haqoratni ifodalovchi qarg‘ish haqidadir. O‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan maqollardan kishilarni yomon so‘z aytishdan, ayniqsa, kimnidir qarg‘ashdan qaytariladi.

Keliningni qarg‘ama: o‘g‘lingga uradi; kuyovingni qarg‘ama: qizingga uradi [6].

Bu maqol ogohlantirish maqsadida yaratilgan bo‘lib, birovni qarg‘ashdan saqlanish kerakligi haqidadir. Kelin, kuyov, o‘g‘il va qiz obrazlari orqali qarg‘ishning aytgan odamning o‘ziga qaytishi tushuntirib berilgan. Kelib chiqadigan kognitiv belgi – “qarg‘ish egasiga qaytadi”.

Haqorat va unga sinonim bo‘lgan so‘zlar qatnashgan paremlar tahlilidan kelib chiqqan holda aytish mumkin-ki, halq tomonidan yaratilgan ushbu ijod namunalarining barchasida kishilarni haqorat qilishdan qaytarish, uning yomon oqibatlaridan ogohlantirish mazmuni yotadi.

Paremlarning nutqda qo‘llanilishiga xos jihatlardan biri ularning haqorat materiali sifatida yuzaga chiqishidir. Semantik tarkibi haqorat komponentli salbiy baho mazmuniga ega bo‘lgan paremlar ham o‘zbek tilida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, M. Umarxo‘jayev va Q. N. Nazarov tomonidan yaratilgan “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da keltirilgan “kirmagan eshigi, bosh suqmagan teshigi yo‘q”, “oq it, qora it, baribir it” [12] kabilar shular jumlasidandir.

Nutqda bu borada paremlar orasida maqollar ko‘p ishlatiladi.

– Qazisan, qartasan, axir, aslingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib. – Endi jir bitdi-da! Bitta ko‘ylak ikkita bo‘ldi! Uvada, isliqi to‘n, chilvir belbog‘ning xumorisi tutgandir!..

Sidiqjon qaynanasidan bu xildagi ta‘nalarni ko‘p eshitgan, lekin sira gap qaytarmagan edi, bu safar zaharxanda qilib:

– O‘zi to‘ymaganning salqiti qorin og‘ritadi, onajon, sizdan ortdiyu, bizga jir bitdimi! – dedi.

Kampirning jig‘ibiyroni chiqdi [13].

Asardan parchada bosh qahramon Sidiqjon va uning qaynonasi o‘rtasidagi mojaro tasvirlangan. Sidiqjon o‘zi kambag‘al oiladan chiqqan, o‘ziga to‘q oilaning qizi Sharofatga uylanishidan avval uning qo‘shnisining bog‘ida qarol bo‘lib ishlaydi. Qaynonasi Sidiqjonga qarata aytgan “Qazisan, qartasan, axir, aslingga qaytasan” maqolidan maqsadi uning turmush qurishdan avvalgi hayoti, qashshoq oilasi va qarol bo‘lib ishlagan kezzarini eslatib uni kamsitish edi. Bu maqol tarkibidagi “asl” leksemasining ma’no semalari “kelib chiqqan joy”, “haqiqiy”, “chinakam” orqali Sidiqjon tug‘ilib o‘sgan qashshoq oilasiga ishora qilingan. Shu orqali haqorat yuzaga kelgan. Uvada, isliqi to‘n, chilvir belbog‘ni eslab o‘tish esa haqoratning kuchini yanada oshirgan.

Bu gaplar Sidiqjonning g‘ururiga tegadi va u ham maqol bilan javob beradi. Sidiqjonning javobida ham qaynonasidan norozilik mujassam edi. O‘z o‘rnida u ham qaynonasiga qarata “o‘zi to‘ymagannig salqiti qorin og‘ritadi” deya maqol qo‘llaydi. Bu maqolda ishlatilgan “to‘ymagan” leksemasining ma’no tarkibidagi “ochko‘z”, “boriga qanoat qilmaydigan” semalari orqali haqorat ifodalangan.

Asarda Sidiqjon salbiy qahramon emas, balki endigina o‘zining mustaqil fikrini bildirib, oilasi bilan ota yurtiga ketmoqchi. Lekin, uning xotini va qaynonasi yuzsiz, qahri qattiq ayollardan bo‘ladi. Buni asarda qaynonasi tomonidan qo‘llangan ifoda vositalari orqali ham bilish mumkin.

- Kampir uyda javrar, qizini qarg‘ar edi:
- E, o‘l, ityaloq! Daydi itning tumshug‘ini yog‘ qilmay o‘l! Itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni! Koshki o‘z boshini g‘ajisa! [13]

Kampir endi Sidiqjonni uyiga olib kelgani uchun qizini haqoratlay boshladi. Bu matnda “itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni” maqoli tanbeh ko‘rinishida ifodalanib, haqorat semasiga ega so‘z “it”, “daydi it” obrazlarida Sidiqjon nazarda tutilgan. Vaziyatdan kelib chiqqan holda “itga osh bergan eding, endi, o‘sha it sening boshingni g‘ajiyapti” degan ma’no kelib chiqadi. It leksemasining “to‘rt oyoqli”, “sut emizuvchi”, “hayvon” semalari uning tashqi ko‘rinishini ifodalaydi. Unga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalovchi “zulmkor”, “tishlong‘ich”, “malay”, “noshukr” semalari odamga ko‘chganligi tufayli haqorat yuzaga kelyapti.

Asarda Sidiqjonning qaynotasi Zunnunxo‘ja ham badgo‘ylikda xotinidan qolishmaydi.

[Zunnunxo‘ja] – Ahmoq!

- Ahmoq bo‘lmaganimda shu ahvolga tusharmidim!
- G‘alchani izzat qilsang, chorig‘i bilan to‘rga chiqadi.
- G‘alcha bo‘lmasam to‘pimdan ayrilarmidim. Ayirilganni bo‘ri yer, deydilar.
- Men bo‘ri bo‘ldimmi?! It! [13]

Kuyovining o‘z fikrida qattiq turib olganini ko‘rib uni avval “ahmoq” deb haqoratlaydi. Keyin esa maqol “g‘alchani izzat qilsang, chorig‘i bilan to‘rga chiqadi” (bu o‘rinda invektiv maqol) orqali uni haqoratlaydi. Maqoldagi Sidiqjon o‘xshatilgan “g‘alcha” leksemasining ma’no komponentlari “miqti”, “pakana”, “gap so‘zni tezda anglab, uqib ololmaydigan” tufayli haqorat shakllangan. Bundan tashqari maqol mazmunidan “hurmatga loyiq bo‘lmagan odamni

e‘zozlansa, javobiga senga ziyon keltiradi” ma’no tushunilib, “hurmatga arzimaydigan” kishiga qarata aytiladi. Sidiqjon bunga javoban o‘zini g‘alcha ekanligini, shuning uchun o‘z qarindoshlaridan, to‘pidan ayrilganini aytib “ayrilganni bo‘ri yer” maqoli orqali qaynotasini yirtqich bo‘riga o‘xshatadi. Bundan Zunnunxo‘ja g‘azablanadi. “Ayrilganni bo‘ri yer” maqoli aslida nasihat tarzidagi maqol bo‘lib, ko‘pchilikdan ajralib qolmaslik kerakligini anglatadi. Lekin asardan olingan parchada maqolning qo‘llanilishiga ko‘ra, to‘dasidan ayrilganlarni yeydigan bo‘ri bu – Zunnunxo‘jadir. Bo‘ri leksemasining ma’no komponentlari “to‘rt oyoqli”, “hayvon”, “sut emizuvchi” bo‘lib, bu maqolda uning fe‘l-atvoriga xos bo‘lgan “yirtqich”, “yovuz”, “qonxo‘r”, “shafqatsiz” semalari yuzaga chiqib Zunnunxo‘jaga nisbatan haqorat yuzaga kelgan. Hayvonning odatini anglatuvchi so‘z ma’nosi ma’lum odamga ko‘chganligi uchun maqol bu yerda haqorat ifodasiga aylandi. Bundan jahli yanada oshgan Zunnunxo‘ja kuyovini “it” deydi.

Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydi” asaridan olingan matnda ham paremaning haqorat uchun ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin. Toshbolta shaharda birinchi oilasidan bo‘lgan qizi Nafisaning uyiga borib uni xonasida o‘lik holda topadi. U yana boshqa bir notanish erkak xonada pichoqlangan holda yotishar edi. Militsiyaga xabar bergach, qishloqqa uyga qaytib bo‘lgan voqeani xotiniga aytadi. Xotini Nafisaning direktorga o‘ynash bo‘lib yurganidan xabardor edi.

Adolat bir zum jim qoldi. Keyin past ovozd:

- Bir kunmas bir kun shunday bo‘lishini bilardim, – dedi.
- Nimani bilarding? – dedi Toshbolta sergak tortib.
- Jahlingiz chiqmasin, g‘ar bo‘l, o‘g‘ri bo‘l, insof bilan bo‘l, deyishadi.
- Nima?! – Xotining bu gapini eshitib, Toshboltaning ko‘zlari kosasidan chiqar darajada olaydi: – Nima deding, qanjiq?! Hali mening qizim senga g‘ar bo‘ldimi?![10]

Qing‘ir ish bajarishda haddidan oshgan kishilarga qarata aytiladigan maqol “g‘ar bo‘l, o‘g‘ri bo‘l, insof bilan bo‘l” inaktiv maqol hisoblanadi. Maqol tarkibidagi g‘ar so‘zining “suyug‘oyoq”, “buzuq”, “fohisha” semalari tufayli haqorat hosil bo‘lgan. Shuningdek, bu maqolning qo‘llanilishidan maqsad “Nafisaning g‘ar ekanligi ma’lum, shuningdek, u bu ishni insofsizlarcha bajargani uchun o‘ldirilgan” degan ma’no mavjud. Adolat tomonidan qo‘llanilgan maqol shu tarzda Toshboltaga yetkaziladi. Toshbolta axloqsiz kishi bo‘lib, qizini direktorga o‘zi tavsiya qilgan edi. Lekin qizi haqida maqol orqali ifodalangan bunday salbiy bahoni eshitish uning qattiq jahlini chiqardi.

XULOSA. Ko‘rib o‘tilganidek, paremiologik birlik nutqni bo‘yoqdor, jozibali qilish bilan birgalikda matnda inaktiv funksiyani ham bajarib, adresant tomonidan adresat haqidagi salbiy his-tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. Maqollar tarkibidagi ayrim so‘zlarning semantik komponentidagi haqoratni ifodalovchi semalar va nutqiy vaziyat tahlili maqollardagi salbiy baho ifodasini ochib berishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Райхон Беруний. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Абдусодиқ Ирисов. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1973. – 104 б.//www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Алишер Навоий. Афоризмлар. Нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент: “ЎзФАН” нашриёти, 1941. – 98 б.
3. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. [Matn]/Abdulla Avloniy. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2022. – 96 b.
4. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – 208 бет. // www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Аҳмад Югнакий. Ҳибатул ҳақойиқ (Ҳақиқатлар совғаси) (25) – Б. 7. // www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari (257) – B. 177// www.ziyouz.com
8. Моспанова Н. Ю. Добро и зло.//Антология концептов. под. ред. В. И. Карасика, И. А. Стернина. Том 3. – Волгоград: Парадигма, 2006. – 381 с.
9. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
10. Тоҳир Малик. Мурдалар гапирмайдилар (қисса) (162) – Б. 86 // www.ziyouz.com кутубхонаси
11. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. Биринчи китоб: “Вафо гули”/илмий маърифий рисола. – Тошкент: “Сано-стандарт”, 2018. – 784 бет.
12. Умархўжаев М.И., Қ. Н. Назаров. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 157 б.
13. Қаҳҳор А. Қўшчинор чироқлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 244 б.